

TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARI HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Umarova Nodira Abduzairovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezis O'zbekiston bank tizimidagi tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobini takomillashtirishga bag'ishlangan. Valyuta operatsiyalari bank faoliyatining muhim qismi bo'lib, ushbu operatsiyalarning to'g'ri va qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishini ta'minlashda auditning o'rni beqiyosdir. Tadqiqot maqsadi valyuta operatsiyalari hisobining mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: Valyuta operatsiyalari, bank auditi, xatarlarni boshqarish, xalqaro standartlar, milliy qonunchilik, auditorlik yondashuvlari, nazorat tizimi, takomillashtirish, bank faoliyati, valyuta auditi.

Key words: Currency operations, bank audit, risk management, international standards, national legislation, audit approaches, control system, improvement, banking activity, currency audit.

Kirish

Hozirgi kunda tijorat banklarining moliyaviy faoliyatida valyuta operatsiyalarining tutgan o'rni tobora ortib bormoqda. Valyuta bozorining erkinlashuvi, xalqaro hisob-kitoblar hajmining ko'payishi, konvertatsiya operatsiyalarining faollashuvi banklar zimmasiga ancha katta javobgarlik yuklamoqda. Ayniqsa, bu operatsiyalarning to'g'ri va shaffof yuritilishi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiqligi, hisob-kitobning aniqligi va auditi yuqori sifatli bo'lishi talab etiladi. Shu sababli valyuta operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bugungi bank tizimi uchun dolzarb masalaga aylangan. Valyuta operatsiyalarining mohiyati Valyuta operatsiyalari – bu tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan, chet el valyutasida ifodalangan barcha moliyaviy bitimlar va hisob-kitoblar majmuasidir. Bunga valyuta ayirboshlash, eksport-import to'lovlari, xalqaro pul o'tkazmalari, korrespondent hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar, konvertatsiya bitimlari, shuningdek derivativlar bilan bog'liq moliyaviy instrumentlar kiradi. Ushbu operatsiyalarni noto'g'ri hisobga olish bank moliyaviy holatining noto'g'ri ko'rsatilishiga, soliq hisobotlarida xatolarga va investorlar ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarining hisobi va auditini takomillashtirish – zamonaviy bank tizimi barqarorligi va xalqaro moliyaviy integratsiyadagi

ishtirokini kuchaytirishning asosi hisoblanadi. Hisob tizimini IFRS talablariga moslashtirish, avtomatlashtirishni keng joriy etish, auditning riskga asoslangan modelini yaratish va xodimlar malakasini oshirish orqali tizimda aniqlik, shaffoflik va ishonchlilikka erishish mumkin. Shunday ekan, ushbu yo‘nalishda muntazam islohotlar olib borilishi va xalqaro tajribalardan faol foydalanish bank sektorining raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, valyuta operatsiyalariga oid hisob yuritish va audit tizimini takomillashtirishda qonunchilik bazasining izchil rivojlanib borishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, Markaziy bankning me‘yoriy-huquqiy hujjatlari va Moliya vazirligining ko‘rsatmalari xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirilib borilishi zarur. Bu esa nafaqat moliyaviy hisobdorlikni oshiradi, balki banklar faoliyatida yagonalik, ochiqlik va taqqoslanadigan axborot bazasini shakllantiradi. Bundan tashqari, valyuta operatsiyalarining monitoringini yuritishda mustaqil ichki audit bo‘linmalari faoliyati kuchaytirilishi lozim. Ular nafaqat aniqlangan xatolarni tuzatishga xizmat qilishi, balki oldini olishga qaratilgan maslahatlar va samaradorlikni oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishi kerak. Audit jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar, masalan, dataanalitika vositalari, sun‘iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar joriy qilinsa, katta hajmdagi operatsiyalarni avtomatik tahlil qilish, risklarni tezda aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi o‘rni beqiyos. Ayniqsa, valyuta operatsiyalari hisob-kitobining aniqligi va auditi sohaning barqarorligi va shaffofligi uchun asosiy omillardan biridir. O‘zbekiston tijorat banklari faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishda yutuqlar bilan birga hali ham hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Valyuta operatsiyalari hajmi yildan-yilga ortib borayotgani banklarning xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyasi kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Shunga qaramay, hisob tizimlarining texnologik yetishmovchiligi, xalqaro standartlarga moslashishdagi qiyinchiliklar vakadrlar malakasining yetarli emasligi muhim masalalar sifatida qolmoqda. Bank tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarbdir. Blockchain va sun‘iy intellekt kabi innovatsiyalar operatsiyalarning aniqligini oshiradi, xavflarni kamaytiradi va audit jarayonlarini tezlashtiradi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) to‘liq moslashish banklarning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlaydi. Bu nafaqat bank tizimining samaradorligini oshiradi, balki uning xalqaro raqobatbardoshligini ham ta‘minlaydi. Xodimlar malakasini oshirish bank faoliyatida muvaffaqiyatning kalitidir. Muntazam treninglar va malaka oshirish dasturlari nafaqat ichki auditni kuchaytiradi, balki xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi. Xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali bank ichidagi operatsion xatolarni kamaytirish va valyuta operatsiyalarining sifatini oshirish mumkin.

Valyuta hisob operatsiyalarini tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- valyuta hisob raqamlarining to'g'ri ochilganligiga;
- chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilganligiga;
- chet el valyutasidagi yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari bo'yicha buxgalteriya hisobining to'g'ri olib borilishi;
- eksport va import shartnomalarining hisobga olinish ahvoli va ular bo'yicha yig'ma jildlarning yuritilishi ahvoli;
- eksport va import operatsiyalari bo'yicha debitor va kreditor qarzlarning paydo bo'lish sabablari va ular bo'yicha ko'rilgan choralarga;
- chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishiga;

Xulosa:

Banklarda valyuta operatsiyalari auditi samarali faoliyat yuritish va xatarlarni boshqarishning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu tezisda banklarda valyuta operatsiyalari auditi jarayonini takomillashtirish uchun xalqaro standartlar va zamonaviy texnologik yondashuvlarni joriy etishning ahamiyati ko'rsatib o'tildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlardan foydalanish banklarning valyuta operatsiyalarida xatarlarni kamaytirish va operatsiyalarni shaffof amalga oshirish uchun zaruriy omil bo'lib, audit sifatini oshirishda katta imkoniyat yaratadi. Biroq, milliy qonunchilik talablari va mavjud amaliyot xalqaro talablardan ba'zi jihatlarida orqada qolayotgani aniqlangan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va xorijiy tajribadan kengroq foydalanish talab etiladi. Shuningdek, audit jarayonida sun'iy intellekt va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xatolarni aniqlash va tezkorlikni oshirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. International Financial Reporting Standards (IFRS). "IFRS Standards and their Applications in International Audits." IFRS Foundation, 2023.
2. Basel Committee on Banking Supervision. "Basel II and Basel III: International Standards on Banking Regulation." Bank for International Settlements, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. "Valyuta operatsiyalarining tartibga solish va nazorat qilish to'g'risida qonunchilik hujjatlari." Tashkent, 2022.
4. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF). "Valyuta operatsiyalari auditi va xatarlarni boshqarish bo'yicha qo'llanma." IMF, 2022